



KO'NGIL TAROVATI!

Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Hozir quyida keltiradigan ushbu maqolamizda ham o'zbek ham ozar xalqining ko'nglidan munosib va chuqur o'rin egallay olgan shoir, yozuvchi, drammaturg, tarjimon va haqiqiy ustoz Maqsud Shayxzodaning "Xiyobon" she'riga to'xtalamiz. Bu she'rning o'quvchini o'ziga jalb qiladigan taraflari juda ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Bu maqolani o'qib bo'lgach nega bunday deganimni tushunishingizga ishonaman.*

Kalit so'zlar: *xiyobon, tabiat, fonus, barg, shahar, tomon.*

Ko'ngil! U ruhiyatingizning eng nozik va benazr nuqtasidir. Ko'ngil har doim nenidir xohlaydi. Ba'zan uzoq joylarga ketishni, ba'zan dilga yoqadigan musiqa tinglashni, ba'zan umuman boshqa narsalarni... Lekin shunday bir tuyg'u borki, bu tuyg'uni his qilish uchun xiyobonlar kezish kerak. Sababi sizni o'sha lahzada faqat u yerdagi ajoyibotlargina malham bo'ladigandek. Xiyobon xohlovchi qalbning egasi ham shu xiyobondek sokin va samimiy qalb egasi bo'ladi. Shoir Maqsud Shayxzoda ham shunday samimiy qalb egasi, yaqin do'sti shoir Mirtemirga atab 1965 yilda ushbu she'rni bitadi. O'ylaymizki, bu she'r o'zining asl qahramonini topgan baxtli she'rlardandir.

Lug'atlarda o'qigandim bolalik chog'i:

Daraxt bo'lsa agar yo'lning ikkala yog'i

Uni derlar «Xiyobon»,

(Yo'lchilarga soyabon)...

shoir ushbu misralar bilan bolalik xotiralari va go'zal tabiat manzarasini she'riy shaklga keltirgan. Unda ariq yoqalab ekilgan qator teraklar bor joylar xiyobon deb ataladi. Yoshligimdan eslayman buni deya ta'kidlagan. Darhaqiqat, inson ba'zan chuqur tushkunlik holatiga tushib qoladi. Ruhiga taskinlik xohlaydi. Shunday vaziyatlarda tabiat qo'ynida sayr qilish butun ruhiyatingizga juda ijobiy ta'sir qiladi. Sababi u yerdagi daraxtlar bilan, ariqlarni to'ldirib oqayotgan jilobaxsh, zilol suvlar bilan, turfa xildagi go'zal gullar bilan suhbat rurasan kishi. Insonlarga aytolmaydigan va ba'zan aytishnida xohlamaydigan dil so'zlaringni unga aytasan. Ular seni jimgina tinglaydi. Xiyobon qalbg'a orom bag'ishlovchi makon ekanligini shoir o'z she'rida juda katta mahorat bilan tasvirlab bera olgan.

Umrim yo'li bir xiyobon deya o'yladim,

Shu tufayli bog'-u chaman kuyin kuyladim.



Shaharlarim ko'chalarin men tinmay kezdim,
Daraxtlarning soni qadar misralar tizdim.

umrlarni turli xil shoirlar turfa narsalarga qiyos qilishadi. Masalan kimdir bir soyga, kimdir daryoga, bizning shoirimiz esa bir xiyobonga o'xshatadi. Xiyobon umrimda chaman bog'lar ichida kuylar kuyladim deya umrini qanday yashab o'tganligi haqida chuqur mulohaza yotadi. Hayotdan zavqlandim qisqa umrimda turli shahar ko'chalarida kezdim-u ulardan ilhomlanib daraxtlar soni qadar misralar ya'ni she'rlar tuzganini e'tirof etgan.

Kunduzlari xiyobonda pana izladim,
Va'da bergan bevafoni oqshom ko'zladim.
Oh, yoshlikning oqshomlari o'xshamas tunga,
Yoshlikdagi tunlar o'zi qovushar tongga.
Oqshom payti xiyobonning gashti o'zgacha,
Zumrad ko'zli ilk bahordan oltin kuzgacha...

Yoshlik umrning eng bebaho, ortga qaytmas davridir. "Yoshlik-oltinga teng" deyishadi. Yo'q, men bu fikrga u darajada qo'shilmagan bo'lardim. Sababi oltin bugun sizda bo'lmasa ertaga uni topishingiz mumkin. Agar ertaga ham topilmasa umringizning oxirigacha qachondir topishingiz mumkin. Ammo yoshlik hech qachon qaytib kelmaydi. Shoir bu jumlar bilan oshiq yigit xiyobonda pana izlab kezganligi mashuqasining visoli o'yida uni xiyobonda kutgan jarayonlar aks etgan. Yoshlik paytidagi tun keksalik davridagi tundan farq qilishligi, yoshlikdagi tunlar kunduzlarga bemalol ulanib ketishligi eng o'zgacha holati sifatida aks etgan. Shubhasizki, siz kimnidir chin yurakdan sevib qolsangiz siz uchun qolgan narsalarning ahamiyati anchayin sustlashadi.

Toblanganda fonuslarning nuri barglarda,
Barglar uni olqishlardi sho'x chapaklarda.
Men Bokuda, Dog'istonda, Darband tomonda,
Moskvada, Samarqandda va Andijonda
Necha larzon soyalarda izlar qoldirdim,
Necha yoz-u, necha soz-u, so'zlar qoldirdim.

Oqshomlari olam o'zining qora libosini kiygan mahal hamma tarafni fonuslar yoritadi. Xiyobonlarda ayniqsa bu manzara juda o'zgacha bo'ladi. Sababiki, bu fonuslar rangidan daraxt barglari bir ajoyib tusga kiradi. Shabboda bo'lib barglar bir-biriga tegib ajib bir tovush hosil qiladi. Bu jarayonni shoir barglar fonuslarga olqishlaydi deya ta'rif bergan.

Keying to'rtlikda esa shoir ko'zi bilan ko'rib guvohi bo'lgan, qadami yetgan shaharlarni tilga oladi. Bu shaharlarni kezar ekan bu shaharlarda izlarim qolgan



va yoshiga nisbat bergan holda shu kungacha umrida yozgan she'rlari-yu, hikoya va jamiyki ijod olamini so'zlar qoldirdim deya tarannum etadi.

Xiyobonlar yashar edi xotirotimda,
Balki har bir qo'shig'imda, naqarotimda.
Yashar edi bo'salarning to'plami kabi,
Sevgilarning apreldagi ko'klami kabi,
Uyg'onsam-da unutilmas shirin tush kabi,
Meni tushdan uyg'otolgan sayroq qush kabi.

xiyobonlarni juda sevganligi shoirning ushbu she'ri orqali juda aniq anglashilib turibdi. Xiyobonni sevishganlarning aprel oyidagi ko'klami kabi juda go'zal tasvirlagan. Uxlasamda tushlarimga ham kirsin ammo men sira bu shirin tushdan uyg'onmay deydi shoir o'z she'rida. Ammo keying misrada uni faqat sayroqi qushning xonishi uyg'ota oliashini ham ta'kidlab ketgan.

Nima bo'lgan taqdirda ham tabiat insoniyat paydo bo'lishidan avval paydo bo'lgan va u bilan ham birga rivoj topib bormoqda. Bu go'zal tabiatning bir xilqati bo'lgan xiyobonlarni eng sakinat cho'mgan orombaxsh joy deya tarannum eta olgan shoirimizni haqiqiy sof qalb egasi deya ayta olamiz. Zero, inson tabiati va borliq tabiati bir-biriga uzviy bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maqsud Shayxzoda. She'rlar.
2. Maqsud Shayxzoda. Chorak asr devoni.
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. <https://uz.fayllar.org>
5. [O'zbekiston Respublikasi IIV Qashqadaryo akademik litseyi o'qituvchisi Eralova Marxabo maqolasi.](#)
6. [Ziyo.uz.comkutubxonasi.](http://Ziyo.uz.comkutubxonasi)